

PEDAGOGIKA, PSIXOLOGIYA VA METODOLOGIYA

TA'LIMiy O'YINLAR ORQALI TALABALARNING KREATIV QOBILIYATINI SHAKLLANTIRISH PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA

Olimov Temir Hasanovich

*Osiyo Xalqaro universiteti dotsenti,
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

Nasriyev Baxtiyor Qaxramonovich

Osiyo Xalqaro universiteti

pedagogika-psixologiya yonalishi birinchi bosqich magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada bo'lajak mutaxassislarni kreativ qobiliyatga yo'naltirish, sifatli ta'limga yo'naltirilgan motivatsiyasini faollashtirish, ta'lim muassasalarida ta'limiy o'yinlarning o'rni qayta ko'rib chiqish va ta'limiy o'yinlar orqali talabalarning kreativ qobiliyatini shakllantirish pedagogik muammo ekanligi haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: ta'lim, o'yin, talabalar, kreativ, qobiliyat, ma'naviyat, mafkura, iroda, jismoniy tarbiya, texnika, taktika, harakat.

Аннотация. В данной статье предлагается направить будущих специалистов на творческие способности, активизировать их мотивацию к качественному обучению, пересмотреть роль развивающих игр в образовательных учреждениях, причем через образовательные игры считается, что формирование творческих способностей учащихся способности - педагогическая проблема.

Ключевые слова: воспитание, игра, учащиеся, творчество, способность, духовность, мировоззрение, воля, физическое воспитание, техника, тактика, действие.

Abstract. This article proposes to direct future specialists to creative abilities, activate their motivation for quality learning, reconsider the role of developmental games in educational institutions, and through educational games it is believed that the formation of students' creative abilities is a pedagogical problem.

Key words: education, game, students, creativity, ability, spirituality,

worldview, will, physical education, technique, tactics, action.

Jahon amaliyotida ta'lim jarayonlarini subyektlarning o'zaro kreativ qobiliyatlar negiziga qurish, bunda o'yinli vaziyatlarning murakkab ijtimoiy-madaniy hamda didaktik hodisa sifatida o'quv faolligi va natijadorligiga ta'siridan samarali foydalanish tendensiyalari mavjud. Ilg'or ta'lim muassasalari tomonidan bilish qobiliyatida o'yinlar talabalar hayotining universal tarkibiy qismi ekanligi, pedagogik qiymati, erkinligi va ixtiyoriyligi e'tirof etilib, o'yinlar mashg'ulotlarning amaliy yo'nalganlik imkoniyatlari va sifat kafolatini oshirish vositasi hisoblanishiga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Mamlakatimizda ta'lim tizimini ijodiy va ijtimoiy faollikka, mustaqil ravishda istiqbol vazifalarini hal etishga qodir yangi avlodini kamol toptirish, xalqning boy intellektual merosi va umumbashariy qadriyatlari, milliy madaniy-tarixiy an'analar asosida tashkil etish borasida izchil islohotlar amalga oshirilmoqda. Natijada, yurt istiqboli uchun mas'uliyatli, tashabbuskor, shijoatli yoshlarni tarbiyalashga yo'naltirilgan noan'anaviy pedagogik yondashuvlar, ta'limiy o'yinlar texnologiyalardan foydalanish salmog'i ortib bormoqda. Shu bilan birga talabalarda kreativ qobiliyatga asoslangan ko'nikmalarini rivojlantirish jarayonida o'yinlar

integratsiyasini kengaytirish zarurati mavjud. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida "Jismonan sog'lom, ruhiy va intellektual rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan, qat'iy hayotiy nuqtayi nazarga ega, Vatanga sodiq yoshlarni tarbiyalash, demokratik islohotlarni chuqurlash-tirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonida ularning ijtimoiy faolligini oshirish" kabi vazifalar belgilanib, bu borada ta'lim jarayonida o'yinlardan foydalanishning didaktik imkoniyatlari, yo'llari, usullari va shart-sharoitlarini aniqlash-tirish, o'yinlar vositasida o'quv-chilarda kreativ qobiliyatga asoslangan ko'nikmalarini shakllantirishning ilmiy-metodik ta'minotini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Mustaqillik yillarida zamonaviy talablar asosida ta'lim sifatini oshirish, kreativ usullarni qo'llash orqali ta'lim berish, ta'lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlashtirish, o'quv dasturlari, o'quv-metodik adabiyotlarini xalqaro talablar asosida yangilash, o'quv jarayoniga ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalarini joriy etish kabi ishlarga alohida e'tibor qaratildi. Mamlakatimiz oliy ta'lim tizimida kadrlar tayyorlashning erishilgan darajasi xalqaro maydonda e'tirof etish, zamonaviy ta'limning sifat

jihatlarini yanada oshirish, bu boradagi samarali ishlarimizni yangi bosqichga ko'tarish o'ta muhim ahamiyat kasb etadi. Ta'lim tizimi rivojlanishi o'qitishda innovatsion texnologiya-larning roli ortib borishi bilan xarakterlab, u bilimlarni rivojlantirish, o'zlashtirish va tarqatish xususiyatini o'zgartiradi, o'rganilayotgan fanlar mazmunini chuqurlashtirish va kengaytirish, uni yangilash, samarali o'qitish usullarini qo'llash va ta'limga kirishni sezilarli darajada kengaytirish imkonini beradi.

Mamlakatimiz oliy ta'lim tizimida yuqori malakali va raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash bu tizimning eng muhim vazifalaridan hisoblanadi. Mazkur vazifaning nechog'lik samarali hal etilishi mamlakatimizda amalga oshirib borilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar va jamiyatimiz hayotini tubdan qayta qurish borasidagi maqsadlarga erishishni ta'minlashga katta ta'sirini ko'rsatmasdan qolmaydi. Chunki, amaliyotdan ma'lumki, har qanday ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlarning samaradorligi bu borada belgilangan vazifalarni bajarishga safarbar qilinadigan mutaxassislarning kasbiy yetukligiga to'g'ridan-to'g'ri bog'liqdir.

O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi ko'p jihatdan jahon intellektual salohiyatiga to'laqonli qo'shila oladigan mutaxassislarni tayyorlashga. Buni ta'minlash esa bo'lajak

o'qituvchilarni va ilmiy-pedagog xodimlarni zamonaviy talablar asosida tayyorlashni taqozo etadi. Bunday muhim vazifani hal qilishning samarali yo'llaridan biri bo'lajak o'qituvchilarni ijodiy qobiliyat bilan shug'ullanadigan qilib, ya'ni ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish ko'nikma va malakalariga ega qilib tayyorlashdan iboratdir. Bu vazifani bajarishning yana bir ahamiyatli tomoni shundaki, hozirda ilm-fan va texnika-texnologiyalar kun sayin, soat sayin takomillashib, rivojlanib bormoqda va natijada shunga mos yetuk mutaxassislar tayyorlash zarurati ham tug'ilmoqda.

Bu borada, ya'ni bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlashda raqobatbardoshlikni ta'minlash, rivojlangan ta'lim tizimiga uyg'unlashish, noan'anaviy ta'limni joriy etish, bo'lajak o'qituvchilarni kreativ qobiliyatini rivojlangan qilib shakllantirish masalalari dolzarb vazifalar bo'lib hisoblanadi.

Bo'lajak mutaxassislarni kreativ qobiliyatga yo'naltirish, sifatli ta'limga yo'naltirilgan motivatsiyasini faollashtirish, ta'lim muassasalarida ta'limiy o'yinlarning o'rni qayta ko'rib chiqish, ta'lim islohotlarini amalga oshirish jarayonini mintaqalar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mos holda prognoz qilish dolzarb muammo sifatida e'tirof etilmoqda.

Mamlakatimizda sog'lom va intellektual jihatdan kamol topgan

avlodni tarbiyalash, ularni kreativ qobiliyatga yo'naltirish uchun zarur imkoniyatlar hamda shart-sharoitlar yaratish "XXI asr– ijodkorlik asr"da qadriyatlar ustuvorlik qiladigan asr ekanligini e'tiborga olgan holda Vatanimiz yigit va qizlarini har tomonlama barkamol shaxslar qilib shakllantirish hozirda nihoyatda dolzarblik kasb etmoqda va u ham milliy, ham umumbashariy mazmun-mohiyatga ega bo'lib, uning ijrosi insoniyatni ma'naviyat va ma'rifatga, yuksak barkamollikka, ezgulikka olib boradi. Shu sababli barkamol avlodni tarbiyalash va ularni davr talabiga mos qilib shakllantirish azal-azaldan xalqimizning ezgu orzusi bo'lib kelgan. O'zbek xalqining o'tmishiga nazar soladigan bo'lsak, ajdodlarimiz ham yoshlarning kreativ qobiliyatini hamda intellektual salohiyatini yuksaltirishga doimo e'tibor berib kelgan va ularning doimo amaldagi orzusi bo'lgan, ya'ni bu istiqbolli orzusi doimiy maqsadga aylangan va bunday orzuga erishish nafaqat oila boshlig'i yoki ta'lim muassasalaridagi murabbiylar, balki yurtimizning donishmand-ziyolilari (olimlar, shoirlar, yozuvchilar, tarixchilar, hadischilar va h.k.) va adolatparvar hukmdorlarning ham bosh maqsadi bo'lgan.

Jumladan, bunday yuksak orzu-istaklar Abu Nasr Farobiyning fozillar jamiyati ("Fozil odamlar shahri"), Yusuf Xos Hojibning "Saodatga eltuvchi bilim",

shuningdek, At-Termiziy, Ahmad Yassaviy, Imom al-Buxoriy, Bahovuddin Naqshband, Hoja Ahror Valiy, Az-Zamahshariy, Najmiddin Kubro, Ya'qub Charxiy, Xoja Mahmud Porso, Kosoniy, Xoja Yusuf Hamadoni, Abdulholiq G'ijduvoni va boshqalarning ilmi hadis yo'nalishidagi ta'limotlari va Al-Xorazmiyning dunyoviy ahamiyatga ega bo'lgan kashfiyotlari (algoritm asoschisi), Ibn Sino tibbiyoti, Abu Rayhon Beruniyning qomusiy ilmi va ijtimoiy axloqiy qarashlari, A. Temur davlatchiligi va tuzuklari hamda uning adolatli ijtimoiy-tashkilotchilik ishlari, Mirzo Ulug'bekning koinot ta'limini ommaviy olib borish (dorilfunun tashkil etish) haqidagi ta'limoti, Mirzo Boburning ta'limni isloh qilish sohasidagi "Xatti Boburiy", Alisher Navoiyning adolatli jamiyat va ma'rifatga chaqiruvchi ta'limotlari, Ma'mun akademiyasining "Donishmandlik uyi" ("Bayt-ul hikma") dagi ta'limotlarida teran ifoda qilingan. Hozirda bunday boy o'tmish merosimizga ega bo'lgan ajdodlarimiz orzusiga erishildi va u respublikamiz ahlini turli jabhalarda tub burilishlar qilishga, islohotlar qilishga ilhomlantirdi.

O'yin - bu atrofdagi dunyo haqiqatidan farq qiladigan faoliyat. Bu atrofdagi yashash muhitining o'zgarishi. Odamlar doimo o'zlarini o'rab turgan narsalardan, haqiqiy dunyodan farq qiladigan yangi ixtirolarni yaratadilar. Bu go'zallikka, ideal dunyoga yoki hech

bo'lmaganda mavjudlikning ideal holatiga bo'lgan istakning bir turi. Go'zallik va o'yin juda xilma-xil va yaqin rishtalar bilan bog'langan. Har qanday o'yin har qanday ko'rinish va sharoitda erkin, erkin faoliyatdir.

O'yin - bu o'yinning o'zi uchun yaratilgan faoliyat. O'yin jarayonida paydo bo'ladigan ushbu o'qish faoliyatida ishtirok etishdan zavqlanish uchun.

O'yin - bu insonning munosabatini, uning shaxsiyatini atrofdagi dunyoga, umuman va xususan, uning hayotini tashkil etuvchi narsaga aks ettiruvchi narsa. O'qish faoliyati nafaqat oliy ta'lim talabalarning talabalarning asosiy faoliyati, balki har qanday yosh uchun ham, o'smirlar ham, yoshlar

uchun ham jozibali.

O'yin ijtimoiy tajribalarni o'zlashtirish va qayta yaratishga yo'nalgan vaziyatlarda, qobiliyat turi sifatida belgilanadi va unda shaxsning o'z xulqini boshqarishi shakllanadi va takomillashadi. D.N. Uznadzening ta'rificha, o'yin shaxsga xos bo'lgan ichki immanent psixik (ruhiy) xulq shaklidir. L.S. Vigodskiy o'yinni bolaning ichki ijtimoiy dunyosi, ijtimoiy buyurtmalarni o'zlashtirish vositasi sifatida ta'riflaydi. A.N. Leontev o'yinga shaxsning xayolotdagi amalga oshirib bo'lmaydigan qiziqishlari (manfaatlari)ni xayolan amalga oshirishdagi erkinligi sifatida qaraydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Olimov, T. The role of national spirituality and values in the development of civil culture in future specialists with higher education.
2. Olimov, T. (2020). Bo'lajak oliy ma'lumotli mutaxassislarda fuqarolik madaniyatini shakllantirishning ayrim yo'nalishlari. Integration of science, education and practice. Scientific-methodical journal, 1(1), 20-27.
3. Olimov, T. H. (2016). Formation of self-awareness in youth. Social and humanitarian sciences in the educational system.-Tashkent, 4.
4. Olimov, T. H. (2019). Spiritual and moral aspects of the formation of civil culture in future specialists of higher education. Theoretical & Applied Science, (12), 662-665.
5. Olimov, T. H. (2019). Development issues of civil society and culture in the work of Eastern thinkers. Pedagogical skill-Bukhara, 2.
6. Olimov, T. H. (2020). The image of a modern teacher in the formation of civic culture among future highly educated specialists. Bukhar